

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan  
1-kurs 1semestr uchun

Elektron dars taqdimoti

*Mavzu:* Matematik funksiyalarga doir misollar  
yechish.

**Tuzuvchi:** Toshmurodov Sh.

1. MS Excelning funksiyalar kutubxonasida matematik funksiyalar.
2. Master funksiya ~~Rela~~ yordamida matematik funksiya joylashtirish.

- MS Excel dasturi ro`yxatiga 60 dan ortiq matematika yo`nalishidagi funksiya kiritilgan. Bu funksiyalarlar argumentida son,son qiymatli kataklar murojaat yoki son qiymat qabul qiluvchi ifoda bo`lishi mumkin. Agar funksiyalar argumenti son bo`lmasa, u holda **#ЗНАЧ!** xatoligi qaytariladi

# MATEMATIK FUNKTSIYALAR

Exceldagı Nomi	Bajaradigan vazifasi	Misollar
<b>ABS(son)</b>	<b>Sonning absolyut qiymatini hisoblaydi</b>	<b><math>ABS(-274)=274;</math> <math>ABS(48)=48;</math> <math>ABS(-1,23)=1,23;</math> <math>ABS(0)=0</math></b>
<b>ЗНАК(son)</b>	<b>Son manfiy bo'lsa <math>-1</math>, 0 bo'lsa <math>0</math>, musbat bo'lsa <math>1</math> qiymatga teng</b>	<b><math>ЗНАК(-7,5)=-1;</math> <math>ЗНАК(0)=0;</math> <math>ЗНАК(2011)=1</math></b>
<b>КОРЕНЬ(son)</b>	<b>Sonning kvadrat ildizini hisoblaydi</b>	<b><math>КОРЕНЬ(4)=2;</math> <math>КОРЕНЬ(81)=9;</math> <math>КОРЕНЬ(0,04)=0,2</math></b>

# MATEMATIK FUNKTSIYALAR

<b>OCTAT(son;bo'luvchi)</b>	Sonni bo'luvchiga bo'lgandagi qoldiqni hisoblaydi	OCTAT(45;7)=3; OCTAT(15;3)=0; OCTAT(-191;10)=9
<b>СТЕПЕНЬ(son; daraja ko'rsatkichi)</b>	Sonni darajaga ko'taradi	СТЕПЕНЬ(3;4)=81; СТЕПЕНЬ(2;10)=1024; СТЕПЕНЬ(-1,7; 5)= - 14,1986
<b>ОТБР(son;razryadlar soni)</b>	Sonni kasr qismidan razryadlar sonicha qoldirib, qolganini yaxlitlamay tashlab yuborib qaytaradi. Razryadlar soni yozilmasa 0 ga teng deb hisoblanadi.	ОТБР(5,5)=5; ОТБР(-5,5)=-5 ОТБР(12,345;2)=12,34
<b>ЦЕЛОЕ(son)</b>	Kichik butun songacha yaxlitlaydi	ЦЕЛОЕ(5,5)=5; ЦЕЛОЕ(-5,5)=-6

# MATEMATIK FUNKTSIYALAR

<b>EXP(son)</b>	sonning eksponentasini hisoblaydi, yani $e$ sonini son darajaga ko`tarish natijasini qaytaradi	EXP(0)=1; EXP(1)=2,718281828; EXP(2)=7,389056099; EXP(-1)=0,367879441;
<b>НЕЧЕТ(son)</b>	Sonni eng yaqin toq songacha yaxlitlaydi:son manfiy bo'lmasa o'sish tomonga,manfiy bo'lsa kamayish tomonga	НЕЧЕТ(0)=1 НЕЧЕТ(0,2)=1 НЕЧЕТ(-1)=-1
<b>ЧЕТН(son)</b>	Sonni yaqin juft songacha yaxlitlaydi:son manfiy bo'lmasa o'sish tomonga,manfiy bo'lsa kamayish tomonga	ЧЕТН(0)=0 ЧЕТН(1)=2 ЧЕТН(-1)=-2
<b>OKPBBEPX (son;aniqlik)</b>	Sonni to'ldirib aniqlik soniga karrali holda qaytaradi:son maxfiy bo'lmasa o'sish tomonga,manfiy bo'lsa kamayish tomonga	OKPBBEPX(12,3; 10)=20 OKPBBEPX(12,3;1)=13

# YIG'INDINI HISOBLASHGA OID FUNKTSIYALAR

<b>CYMM(son1; son2; ...)</b>	Katakchalar blokidagi qiymatlarning yig'indisini hisoblaydi	CYMM(G4:G13)=330; CYMM(C4:C13; E4:E13)= 115
<b>СУММЕСЛИ (diapazon;shart;yig'indi diapazoni)</b>	Diapazon kataklaridagi qiymatlardan shartni qanoatlantiradigan mos yigindi diapazoni kataklaridagi qiymatlarining yig'indisini qaytaradi.	Shart 32,">32", B5, "32","Ism", "<"&B5,"ta", "?a" kabi yozilishi mumkin

# TRIGONOMETRIYAGA OID BA`ZI FUNKSIYALAR

- ❖ **ПИ0** –Argumentsiz funksiya
- ❖ **SIN** (son) - sonning sinusini hisoblaydi.
- ❖ **COS** (son) - sonning kosinusini hisoblaydi.
- ❖ **TAN** (son) - sonning tangensini hisoblaydi.

# TRIGONOMETRIYAGA OID BA`ZI FUNKSIYALAR

- ❖ **ПИ()** –Argumentsiz funksiya 15 xona aniqlikda "p"soni qiymati 3,14159265358979 ni qaytaradi
- ❖ **ГРАДУСЫ(burchak)**-Burchakning radian o`lchov birligiga
  - teng bo`lgan gradus o`lchov birligini qaytarad
- ❖ **Радианы(burchak)**-Burchakning gradus o`lchov birligiga teng bo`lgan radian teng bo`lgan o`lchov birligini qaytaradi.
- ❖ **КОРЕНЬПИ(raqam)**—"p" sonini songa ko`paytirib, natijani kvadrat ildizini qaytaradi. Son manfiy bo`lsa #ЧИСЛО xabarini qaytaradi.

## TRIGONOMETRIYAGA OID BA'ZI FUNKSIYALAR

- ❖ **COS(raqam)**- Radian o'lchov birligidagi songa teng burchakning kosinusini qaytaradi. Agar burchak gradus o'lchov birligida berilgan bo'lsa, u holda burchakni radian o'lchov birligiga o'tkazish uchun  $\pi/180$  ga ko'paytiriladi yoki Радианы funksiyasidan foydalilaniladi.
- ❖ **ACOS(raqam)**- Sonning arkkosinusini qiymatini radianlarga qaytaradi. Sonning arkkosinusi –kosinusi songa teng burchak bo'lib, qiymati  $[0; \pi]$  kesmada bo'ladi. Sonning qiymati  $[-1; 1]$  kesmadan chiqmasligi shart, aks holda #ЧИСЛО! Xabarini qaytaradi.

# TRIGONOMETRIYAGA OID BA'ZI FUNKSIYALAR

- ❖ **SIN(raqam)** – Radian o'lchov birligidagi **songa** teng burchakning sinusini qaytaradi. Agar burchak gradus o'lchov birligida berilgan bo'lsa, u holda burchakni radian o'lchov birligiga o'tkazish uchun  $\Pi() / 180$  ga ko'paytiriladi yoki Радианы funksiyasidan foydalaniladi.
- ❖ **ASIN(raqam)** – Sonning arksinusi qiymatini radianlarda qaytaradi. Sonning arksinusi – sinusi songa teng bo'lgan burchak bo'lib, qiymati  $[-\pi/2; \pi/2]$  kesmada bo'ladi. **Sonning qiymati**  $[-1; 1]$  kesmada chiqmasligi shart, aks holda #ЧИСЛО! xabarini qaytaradi.

E`TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT